

## **BOLANING SOG’LOM RIVOJLANISHIDA SPORTNING AHAMIYATI**

**Xaliqov Abduxaliq Abdulxalimovich**  
**Andijon davlat universiteti, fakultetlararo**  
**jismoniy madaniyat va sport kafedrasida dotsenti.**

**Annotatsiya:**Maqolada bolalarni sport mashg’ulotlariga jalb qilish, bolalarning sog’lom rivojlanishida sport mashq elementlarining ahamiyati haqida so’z yuritilgan.

**Kalit so’zlar:**gimnastika, sog’lomlashtirish, sog’lik-salomatlik, sport, mashg’ulotlar, badan-tarbiya, bolalar, ko’nikma, malaka.

### **KIRISH**

Bizga ma’lumki, sport insonning sog’ligi uchun, muhim ahamiyatni kasb etuvchi mashg’ulotlardan biri hisoblanadi. Sport bilan shug’ullangan ko’p insonlar sog’liklaridan unchalik ko’p nolimaydilar.

Bolaning sog’lom rivojlanishida albatta sportning ahamiyati katta, bolani sog’ligini mustaxkamlashda, doimiy badan-tarbiya mashqlarini bajarishi unga doimiy o’rgatilib borish lozim, bolaning barcha muskullari uchun umumrivojlantiruv mashqlari muhim ahamiyat kasb etadi. Muskullar, qo’l va yelka sohalari, yana shunga o’xshash tana qismlarining salomatligida ushbu mashqlar muhim o’rin tutadi. Umumrivojlantiruvchi mashqlar bu maxsus mashqlardir. Ular butun organizmning rivojlanishi va sog’lomlashishida muxim rol o’ynaydi va yelka kamari, gavda, oyoq kabi yirik muskul guruhlarining rivojlanishi va mustahkamlanishiga, bo’g’imlarning xarakatchan bo’lishiga muskullar taranglashuvi va bo’shashuvi jarayonini normallashtirishga yordam beradi. Bu mashqlarning vazifasi to’g’ri qad-qomatni shakllantirish, butun tayanch xarakat apparatini mustaxkamlash va qon aylanish, nafas olish, almashinish jarayonlari, asab tizimi faoliyatini yaxshilashdan iboratdir. Umumrivojlantiruvchi mashqlar harakatlarni idora qiluvchi oliy motor markazlari ishini faollashtiradi; tezkorlik, chaqqonlik, kuchlar nisbati, chidamlilik, egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni namoyon qilishga yordam beradi, ijobiy emotsional kayfiyat uyg’otadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Jismoniy mashqlar ko’krak qafasi harakatchanligining kuchayishiga, nafas olishning chuqurlashishiga, o’pka hayot ko’lamining kengayishiga, qonning kislorod bilan o’yinishiga yordam beradi.Mashqlar davomida buyumlardan foydalanish.

Bolalar bajaradigan umumrivojlantiruvchi mashqlarning katta qismi buyumlar:

- tayoqchalar, bayroqchalar, chambaraklar, lentalar, shnurlar, langarcho’plar, sharlar bilan;

- predmetlarda, gimnastika devori, skameyka, stullar, xodada amalga oshiriladi.

Bolalar buyumlar bilan bajariladigan mashqlarni qiziqish bilan bajaradilar, mashqlarni takrorlash to’g’ri muskulonusini hosil qilishga yordam beradi.

Bolalarda sport mashg’ulotlarini amalga oshirish murakkabroq jarayon bo’lishi mumkin, lekin, bolani bir yo’nalishga qiziqtirib olish pedagogning oldidagi ilk vazifalaridan biri bo’lishi lozim.

Hali maktab yoshiga yetmagan bolalarda suyak rivojlanishi juda tez bo’lganligi bois, ularni kunlik badantarbiya mashgulotlari bilan shug’ullantirib turish lozim. Ularni biror sport turiga qiziqtirish ham ayni muddao bo’lib, qizlar uchun gimnastika ularni qad-qomatini yaxshi rivojlanishiga, o’gil bolalarda kurash yoki shunga o’xshash ko’plab sport turlari mavjud bo’lib,

barchasi, bolalarni sog’ligi uchundir. Hozirda ham keng rivojlanayotgan sport turlaridan biri bu suzish sport turidir. Ularni sport turiga qiziqtirish uni teran fikrlashga ham olib keladi, doimiy tani faoliyatda bo’lib, sog’lom turmush tarzida yashaydigan farzandlarimiz sog’lom fikrlaydigan, komil inson bo’lib yetishadilar, sport turidagi yutuqlari orqali u o’ziga motivatsiya olishi va bundanda yuksak marralarga erishishni oldiga maqsad qilib qo’yadi. Ulardagi sportga bo’lgan qiziqishlarni, avvalo ularning ota onalari anglashlari lozim, chunki farzand avvalo o’z ota onasining qo’l ostida tarbiya oladi, ularning munosabati bilan to’g’ri yo’l tanlashga kirishadi. Shunday ekan, sport mashg’ulotlarni bolalarda amalga oshirish jarayoni ustida ota-onalari juda muhim rol o’ynaydilar, farzandlarini o’z millati uchun komil shaxs, yetuk kadr sifatida yetishib chiqishida, avvalo ularning o’rni beqiyos. Bolalarga shunday sog’lom muhit yaratib berish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, bolalarning o’sishi va rivojlanishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bolaning shaxs sifatida shakllanishi ilk bor olamni atrofdagi ashyo va buyumlar orqali anglab, undan o’zicha ma’no topishga intilishi, qiziqish va xissiyotlari rivojlanishi kuzatiladi. Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko’ra o’ziga xos bosqichlarga ega. Kichik va o’rta guruh bolalarga harakatlarning shakllanishiga yordam berish, gavnani tik tutishga o’rgatish. Bolalarni mustaqil o’ynayotgan paytlarida harakatlari faolligini barqarorlashuviga yordam berish.

Yuqorida ta’kidlangan barcha fikr va mulohazalar, farzandlarimiz, yosh avlodlarimizning komil inson bo’lib ulg’ayishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo’yiladigan talablar. Davlat talablari T.2011y.
2. K.M.Mahkamjonov Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonni rejalashtirish.T.2011y.
3. D.Sharipova va bosh. “Agar bolam sog’lom bo’lsin desanggiz” ilm ziyo 2006y.
4. ”Bolajon” tayanch dasturi, MTMXQTMORO“MI-2011y.
5. M.M.Nuriddinova Maktabgacha ta’lim muassasalarida Jismoniy tarbiya yo’riqchilari uchun meyoriy xujjatlar majmui. 2013y